**Аннотация:** В данной статье, учитывая, что средний срок создания и запуска агропромышленных производственных предприятий составляет два года, предложены методы оценки инновационной активности на региональном уровне, прогнозирования среднепериодных тенденций экономического развития региона и научные расчеты с использованием эконометрических методов.

**Ключевые слова:** Агропромышленный комплекс, агропромышленный кластер, кластер, конкурентоспособность, инновации, инновационная деятельность, модернизация, инновационная инфраструктура, экономико-математическое моделирование, прогнозирование.

## KIRISH

Mamlakatimizda yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish va xo'jalik yuritishning yangi bozor sharoitlarining rivojlanish jarayonlari agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion faoliyatini tashkil etish, qayta ishlash korxonalarini joylashtirish tamoyil va usullariga yangicha yondashuvni talab etadi.

Innovatsion jarayonni baholash va uning samaradorligini belgilash ham butun, ham alohida bosqichlarda amalga oshirilishi kerak. Bunday yondashuvga ehtiyoj, innovatsion jarayonni amalga oshirish uchun sarf-xarajatlarni va xarajatlarni doimiy ravishda yakuniy bosqichida emas, balki barcha oraliq bosqichlarda doimiy xarajatlarni talab qiladi. Bosqichma-bosqich baholash natijalari butun innovatsion jarayonning samaradorligini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi: g'oyaning boshlanishi, ilmiy tadqiqotlar olib borilishi va innovatsiyalarni qishloq xo'jaligining rivojlanishi uchun yaratilishi tovar ishlab chiqaruvchilari va bevosita muayyan qo'shimcha ta'sirlarni ishlab chiqarishda foydalanishlari mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

B.Z. Milnera "Экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями" nomli ilmiy maqolasida ta'kidlashicha Axborot texnologiyalarini qo'llash va ularni davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi manfaatlarini ko'zlab foydalanish mamlakatni jahon hamjamiyatidagi raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi. Rivojlangan mamlakatlarda YAIMning 80-95 foizi mashinasozlik va texnologiya sohasidagi yangi bilimlar asosida hisobga olinadi. Ushbu mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyot rivojlanmoqda. <sup>[1]</sup>

Cindarov Sh.E o'z dissertatsiya ishida O'zbekistonda modernizatsiya qilishning o'ziga xos tomoni shundaki, u nafaqat iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga, balki iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish uchun yangi institutsional muhitni shakllantirishga qaratilgan deb ta'kidlamogda. <sup>[2]</sup>



Nizamov A.B. "Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста" nomli dissertatsiyasida Agrosanoat ishlab chiqarishi faoliyatini SWOT-tahlil vositasida baholash dolzarb ahamiyat kasb etibgina qolmasdan, metodologik nuqtayi nazardan to'g'ri, deb hisoblaydi. [3]

Tompson A.A., Striklend A.D. "Стратегический менеджмент: искусство разработки и реализации стратегии" nomli maqolasida SWOT – tahlil mintaqalarda agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlanishini tartibga solish jarayonida u yoki bu mintaq uchun rivojlanishning iqtisodiy strategiyasini shakllantirish muhim omil sanaladi deb ta'kidlagan. [4]


B.O.Dusmatov "Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida Agrosanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni tadqiq qilish usullarini tuzib chiqqan. [5]

B.O.Dusmatov "Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish o'sishi samaradorligini baholash uchun indikatorlar tizimi. [6]

Rashidova G. Finansirovaniye startovogo etapa innovatsiy nomli maqolasida Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion loyihalarini baholash, loyihaviy boshqaruv yondashuvining asosi naqd pul oqimining baholash tamoyili deb hisoblaydi. [7]

## TAHLIL VA NATIJALAR

Agrosanoat ishlab chiqarishi tarmoqlarini rivojlantirish xususiyatlarini bosqichma-bosqich kompleksli o'rganishga tayanadigan tizimli tahlil usullari mintaq korxonalari va tashkilotlarining tarmoq strukturasini tadqiq etishga, ularning ichki aloqalari va o'zaro munosabatlarini tahlil qilishga imkon beradi (1-rasm).



1-rasm: Agrosanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni tadqiq qilish usullari

Mintaq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini miqdor va sifat jihatdan baholash uchun quyidagi indikatorlar tizimi shakllangan (2-rasm).

Asosiy indikatorlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi o'sishining tayanch parametrlarini tavsiflaydi va quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish o'sishini rivojlantirish maqsadi va vazifalarni aniqlashtiradi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibining samaradorligini baholaydi;
- hududiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibining samaradorligini baholaydi;
- qishloq xo'jaligida investitsiyalardan samarali foydalanishni belgilaydi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish rivojlanishning innovatsion strategiyasi yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi;
- boshqaruv qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish jarayonlarda axborot oqimlarining tezkorligi va natijaviyligini ta'minlaydi;
- mintaqaning turli hududlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish rivojlanishini taqqoslama baholashni olib borishga imkon beradi va h.k.



Mutlaq ko'rsatkichlar	
1.	Qishloq xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati, mlrd.so'm.
2.	Qishloq xo'jaligining eksporti, mln.doll.SSHA
3.	Qishloq xo'jaligining importi, mln.doll.SSHA
4.	Qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni, ming kishi
5.	Qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishning tarkibi, mlrd.so'm
6.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ekin maydonlari, ming ga
7.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligi, s ga
8.	Don ekinlari yalpi hosili, ming tn.
9.	Paxta yalpi hosili, ming tn.
10.	Poliz, meva uzum mahsulotlari eksporti, mln.doll.SSHA
11.	Qishloq xo'jaligiga jalb kilingan investitsiyalar hajmi, mlrd.so'm.
12.	Chet el investitsiyalari va kreditlari hajmi, mlrd.so'm.
13.	Innovatsion infratuzilma subyektlari soni, ming dona.
14.	Fermer xo'jaliklarini ishlab chiqarayotgan mahsuloti, mlrd.so'm.
15.	Fermer xo'jaliklaridagi sug'oriladigan yerlar,ming ga.
16.	Qishloq hududlarida internetdan foydalanuvchila soni, ming kishi.
17.	Dehqon xo'jaliklari mahsuloti,mlrd.so'm
18.	Dehqon xo'jaliklarida hosildorlik, s/ga
19.	Innovatsion infratuzilma subyektlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi, mlrd.sum
20.	Chorvachilik mahsulotlari, mlrd.so'm
21.	Mehnat unumdorligi, so'm/ming kishiga
22.	Ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan xarajatlar, mlrd.so'm.
Nisbiy ko'rsatkichlar	
1.	Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligini ulushi, %
2.	Hudud qishloq xo'jaligida band bo'lganlar sonini iqtisodiyotda band bo'lganlarga nisbatan ulushi,%
3.	Qishloq xo'jaligini tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ulushi,%
4.	Aholi jon boshiga eksportning hajmi, doll.
5.	Qishloq xo'jaligi eksportiningo'sish dinamikasi, %
6.	Qishloq xo'jaligi mahsulotiningo'sish dinamikasi, %
7.	Investitsiyalarda qishloq xo'jaligining ulushi, %
8.	Fermer xo'jaliklarining ulushi, %
9.	Fermer xo'jaliklarining don yetishtirishdagi ulushi, %
10.	Fermer xo'jaliklarining paxta yetishtirishdagi ulushi, %
11.	Hududning asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari,%
12.	Fermer xo'jaliklaridagi sug'oriladigan yerlar ulushi, %
13.	Dehqon xo'jaliklarining ulushi, %
14.	Chorva soning ulushi, %
15.	Chorvachilik mahsulotlarining ulushi, %
16.	Aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotining hajmi, ming so'm
17.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari rentabelligi, %
18.	Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarga qilinayotgan xarajatlar ulushi, %
Integral ko'rsatkichlar	
1.	Ixtisoslashtirish koeffitsiyenti, %
2.	Mahalliyashtirish koeffitsiyenti, %
3.	Asoiy ko'rsatkichlarni aholi jon boshiga nisbatan differensiatsiyasi, rang
4.	Mahsulotlar bo'yicha raqobatbardoshlik koeffitsiyenti, %
5.	Tumanlarning raqobatbardoshligi bo'yicha reyting bahosi, rang
6.	Klasterlash koeffitsiyenti, %

2-rasm: Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish o'sishi samaradorligini baholash uchun indikatorlar tizimi



Iqtisodiy-matematik modellashirish usullari hududiy iqtisodiy jarayonlar borasida boshqaruv qarorlari qabul qilish bilan bog'liq shartlar va omillar o'rtasidagi aloqalar xilma-xilligi va murakkabligida qo'llanadi. Iqtisodiy-matematik modellardan foydalanish qishloq xo'jalik va qayta ishlash, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish variantlarini optimal tanlash imkoniyati bilan birgalikda qayta ishlashga imkon beradi.

Ekonometrik usullar hududni taqqoslash mumkin bo'lgan yoki iyerarxik jihatdan bir-biriga bo'ysunadigan guruhlariga bo'lishni nazarda tutadi va agrosanoat majmui tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir etadigan tanlab olingan ko'rsatkichlar yig'indisi bo'yicha tumanlar yoki mintaqani kompleksli baholash imkoniyatini taqdim etadi.

Agrosanoat ishlab chiqarishi xo'jalik yuritish subyektlarini tashkil qilish va ishga tushirish o'rtacha muddati ikki yilni tashkil qilishini hisobga olib, hududlar darajasida innovatsion faolligini baholash usullari hududning iqtisodiy rivojlanishi o'rtacha muddat tendensiyalarini hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, hudud agrosanoat ishlab chiqarishiga innovatsiyalarni jalb qilishda, nafaqat joriy vaziyatni, balki tadqiq etilayotgan hudud rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni ham hisobga oladigan o'rta muddatli (3-5 yil) xarakterdagi istiqbolli prognozlar mavjud bo'lgan sharoitlarda qaror qabul qilinishi lozim.

Shu munosabat bilan hudud iqtisodiyotida prognoz qilishning mavjud usullarini tahlil qilish va o'tkazilgan izlanish maqsadlariga eng to'g'ri keladigan vositalarini tanlash amalga oshiriladi. Iqtisodiy bashorat qilish usuli deganda restrospektiv ma'lumotlarni tahlil qilish asosida u yoki bu omillar toifasi bo'yicha hudud agrosanoat majmuasi tarmoqlarining kelajakdagi rivojlanishi borasida takliflar ilgari surishga imkon beradigan tadqiqot usullari yig'indisi tushuniladi.

Taklif etilayotgan tasnifda mintaqada agrosanoat ishlab chiqarishini tadqiq etishda barcha bashorat usullarini ikki guruhga bo'lish mumkin: ekspert va ekonometrik usullar.

Bashorat qilishning ekspertlar usullari, odatda, bashorat obyekti yoki juda ham sodda, yoki o'ta murakkab (turli omillar ta'sirini tahliliy hisobga olish imkoni yo'q) bo'lgan hollarda foydalaniladi.

Ekonometrik usullarni bashorat obyekti haqida miqdoriy axborot mavjud bo'lganda, xilma-xil omillar ta'sirini esa matematik ifodalangan qonuniyatlar yordamida tavsiflash mumkin bo'lgan hollarda qo'llash afzalroq. Ushbu usullar guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ekstrapolyatsiya usullari (jumladan, funksiyani tanlash usullari, o'rtacha qiymatga keltirish usullari va moslashuvchan tekislash usullari);
- modellashirish usullari (jumladan, matritsali, optimal bashorat qilish, ekonometrik va imitatsiya model-lari);
- tarixiy o'xshatish usuli (ko'pincha bashorat qilish obyekti bo'yicha retrospektiv axborot bo'lmagan hol-larda qo'llanadi).

Asosiy ko'rsatkichlar respublika iqtisodiyotining agrar sektorini innovatsion rivojlantirishning asosiy para-metrlarini tavsiflaydi:

- sohaning innovatsion rivojlanishining maqsad va vazifalarini belgilash;
- agrar sektorning innovatsion salohiyatining samaradorligini baholash;
- iqtisodiyotning agrar sektorini innovatsion rivojlantirish darajasini omilli tahlil qilish;
- sohaning innovatsion salohiyatidan foydalanish samaradorligini aniqlash;
- qayta ishlash sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasining yo'nalishini to'g'ri deb belgilash.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotning agrar sektorining bugungi innovatsion rivojlanish holatini, yo'nalishlari va xususiyatlarini tahlil qilish; shu asosda sanoatning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy muammolari va davlat va mintaqaviy innovatsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;
- ilmiy tadqiqot samaradorligini muntazam ravishda monitoring qilishni tashkil qilish ilmiy-texnikaviy mah-sulotlarning uzluksiz integratsiyalangan iqtisodiy baholashini talab qiladi. Ushbu baholashning maq-sadi – ishlab chiqilayotgan yangi texnologiyalarning, urug'larni, naslli mollarni va boshqa innovatsion yechimlarining afzalliklarini aniqlash va ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlashdir.

Ishlab chiqarishda innovatsiyalarni o'zlashtirish bosqichidagi samaradorlik mezonlari quyidagilardir:

- texnologiyalarni yangilash hisobiga ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni;
- ishlab chiqarish omillarining unumdorligini oshirish (yerdan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish jaray-onida mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish va boshqa indikatorlar qo'llaniladi);
- agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion loyihalarini baholash, loyihaviy boshqaruv yondashuvining asosi naqd pul oqimining baholash tamoyili hisoblanadi.

Innovatsion loyihalarni diskontlash asosida hisoblash usullari asosida samaradorligini baholash ko'rsat-kichlari investitsion xarajatlar va daromadlarni ko'rib chiqilayotgan davrning muayyan intervallarida majburiy ravishda diskontlashini ta'minlaydi. Shu bilan birga, statistik hisob-kitob usullari asosida baholovchi ko'rsat-kichlar vaqt va xarajatlar bo'yicha buxgalteriya va ishlab chiqarish ma'lumotlarini ularni vaqtincha diskontlashsiz ishlatishni nazarda tutadi.





Zamonaviy investitsiya dasturida diskontli hisob-kitob usullaridan foydalanishga asoslangan loyihalarning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari ustuvor hisoblanadi. Ularning bajarilishi uzoq muddatli bo'lgan barcha o'rta va yirik loyihalar uchun hisoblash kerak. Statistik usullardan foydalanishga asoslangan ko'rsatkichlar, odatda, kichik qisqa muddatli loyihalarning samaradorligini baholash uchun ishlatiladi.

Investitsiyalar samaradorligini baholash uchun statistik ko'rsatkichlar bir tomondan juda sodda va tushunarli, ikkinchidan, taxminan. Ular pul mablag'lari oqimlari va pul birliklari qiymatining o'zgarishi haqida o'ylamaydilar va shuning uchun asosan qisqa muddatli investitsiyalarni tahlil qilish yoki davr boshida investitsiyalarni amalga oshirish uchun indikativ mezon sifatida qo'llaniladi.

Diskontlangan ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilar kiradi:

1. **Bugungi kunda sof daromad - [Net Present Value, NPV]** innovatsion loyiha samaradorligini umumiy xarakteristikasini olish imkonini beradi, ya'ni uning mutlaq miqdordagi hajmini yakuniy natijasini ko'rsatadi. Bugungi kundagi aniq daromad, loyihani amalga oshirish davrida hozirgi qiymatdan tushirilgan sof pul oqimi summasi va uni amalga oshirish uchun investitsiya xarajatlarining summasi o'rtasidagi farqni anglatadi. Ushbu ko'rsatkichni xarajatlarni bir martalik amalga oshirishda hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi.

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF}{(1+i)^t} - I_0$$

Bunda: NPV -investitsiya xarajatlarini bir martalik bajarish uchun loyihaning sof joriy qiymatining summasi;

CF - loyihaning umumiy amal qilish muddatining individual intervyusi uchun pul oqimining aniq summasi;

I - loyiha uchun bir martalik investitsiya xarajatlari summasi;

i - diskontlangan foiz stavkasi;

n - umumiy hisob-kitob davridagi interval t- oralig'ida.

2. **Rentabellik indeksi (Profit ability index, PI)** loyiha uchun kelajakda aniq pul oqimlari bilan investitsiya xarajatlarining hajmini moslashtirish imkonini beradi. Innovatsion loyiha uchun bir martalik investitsiya xarajatlari bilan bunday ko'rsatkichni hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$PI = \frac{\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+i)^t}}{I_0}$$

PI- bir investitsiya sarfi uchun loyiha rentabellik indeksi darajasi.

3. **Diskontlangan qayta to'lov muddati (Discounted Payback Period, DPP)** – loyihalarning samaradorligini baholash uchun eng keng tarqalgan va aniq ko'rsatkichlardan biridir. Diskontlangan o'zini qoplash muddati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$DPP = \frac{I_0}{\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+i)^{xt}}}$$

4. **Daromadlilikning ichki stavkasi (Internal Rate of Return, IRR).** Loyiha natijalarini baholashning eng murakkab ko'rsatkichi. Investitsiya xarajatlari haqiqiy qiymatiga tushiriladigan diskont stavkasi sifatida ifodalangan ma'lum bir loyihaning rentabellik darajasini tavsiflaydi.

Ushbu indikatorning qiymati quyidagi tenglama bilan bilvosita aniqlanadi:

$$PV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+IRR)^t} - \sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+i)^t} = 0$$

Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion faoliyatni axborot va tahliliy qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish tizimli va funksional tahlil (axborot xizmatlarini tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi) asosida amalga oshirildi va axborot xizmatlarining samaradorligini baholash ( result, recourse, rate, promotion) usuli taklif etildi.

Axborot-tahliliy va marketing platformasini samaradorlikni tayanch ko'rsatkichlari (KPI) tizimidan foydalanish uning yaratish maqsadlari qay darajada bajarilganligini aniqlash uchun foydalanadigan ma'lumotlar majmuasidan iboratdir. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:



## a) natijaviylik (result):

- investitsiya qaytimi (ROMI -return on marketing investment), xarajatlarning rentabelligi;
- portaldagi xizmatlardan to'lovni amalga oshirib aniq foydalanganlar soni;
- ma'lum bir vaqt ichida portalga umumiy kirganlar va uning xizmatlaridan foydalanganlarni nisbati;
- resurslardan "doimiy" foydalanuvchilarning umumiy soni;
- foydalanuvchilar tomonidan portaldan yuklab olingan hujjatlar soni.

## b) xizmatlardan foydalanish tariflari (rate):

- tashrif buyuruvchilarni (bir foydalanuvchi uchun) jalb qilish qiymati (CPC-cost per click);
- internet-resursdan foydalanuvchi tomonidan bajariladigan har bir maqsadli amallarning narxi;
- resurslardan "doimiy" foydalanuvchilar uchun maxsus tariflarda ko'rsatiladigan xizmatlar.

## d) portal reytingini baholash (recourse):

- portalga tashrif buyuruvchilarning umumiy soni;
- maqsadli tashriflar soni, bu foydalanuvchilar portal sahifasi bilan necha marta o'zaro aloqada bo'lganligini ko'rsatadi;
- yangiliklarga obuna bo'lgan, xabar qoldirgan foydalanuvchilar soni yoki ularning kontaktlari;
- yuridik maqomga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning umumiy soni;
- foydalanuvchi portalni tark etadigan vaqtning o'rtacha davomiyligi.

## e) portalni rivojlantirish salohiyati (promotion):

- moslashuvchanlik -foydalanuvchilarning kontentga muammosiz kirishni ta'minlash;
- navigatsiya qulayligi-foydalanuvchi kerakli ma'lumotlarni tez topishini ta'minlash;
- interfeys va dizayn – portal xaqida ijobiy fikr yaratish;
- kontentning mazmuni ma'lumotlar sifatli va axborot mazmuni foydalanuvchilarni jalb qilishi kerak;
- yuklab olish tezligi – foydalanuvchi tarafidan qisqa vaqt ichida portal resurslarini yuklash imkoniyati bo'lishi kerak;
- foydalanuvchilar bilan bog'lanish- qayta aloqani sifatli tashkil qilish internet-resursga muntazam tashrif buyuruvchilar doirasini kengaytirish imkonini beradi;
- reklama-portalning reklama jozibadorligini oshirish, lekin bu jarayon portalning asosiy maqsadini amalga oshirishga to'sqinlik qilishi kerak emas;
- mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan dizayn versiyasini yaratish;
- ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya- bu foydalanuvchilarning ijtimoiy tarmoqlarda akkauntlarini mavjudligini hisobga olgan holda foydalanuvchilar imkoniyatini kengaytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa va taklif sifatida shuni aytishimiz mumkinki, so'nggi yillarda agrosanoat ishlab chiqarishda innovatsion qarorlarni qabul qilishni xalqaro moliya tashkilotlarida qo'llaniladigan loyihaviy tahlil uslublari asosida yondashish keng tarqalgan. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqilgan usullar amaliy maqsadlar uchun taqdim etilgan muqobil variantlardan eng yaxshi innovatsion loyihalarni tanlash imkoniyatlarini beradi. Moliyalash uchun mo'ljallangan innovatsion loyiha, odatda, texnik, texnologik, institutsional, ijtimoiy, marketing, ekologik va moliyaviy jihatlarni, xavf va noaniqlik darajasini hisobga olgan holda qat'iy talablarga javob berishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Б.З. Мильнера Инновационное развитие: Экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями / под общ.ред.—М.: ИНФРА-М, 2010. —624 с.
2. Синдаров Ш.Э. Экономический механизм использования инновационных процессов в предпринимательской деятельности Республики Узбекистан. Автореф. дис. на соис. ученой степени канд. экон. наук. —Т.: ИЭ АН РУз. 2010, с.25.
3. Низамов А.Б. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Диссертация на соискание уч.ст. доктора экономических наук. —Т.: 2008. —С. 268.
4. Томпсон А.А., Стрикленд А.Д. Стратегический менеджмент: искусство разработки и реализации стратегии. —М.: Банки и биржи. ЮНИТИ, 1998. —С. 39
5. B.O.Dusmatov "Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishidan 2021-y.43-b.
6. B.O.Dusmatov "Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishidan 2021-y. 44-b.
7. Рашидова Г. Финансирование стартового этапа инноваций // Экономическое обозрение. — Ташкент, 2010.—№3.— С.32-36.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.